

**POLIKISTOZ TUHUMDAN SINDROMI (PCOS) TASHXIS VA DAVOLASHNING
ZAMONAVIY YONDASHUVLARI**

**Oziboyeva Zuhraxon Arabboyevna
SH. Ismoilova**

Qo'qon universiteti Andijon filiali
2-kurs davolash ishi talabasi

ANNOTATSIYA

Polikistoz tuxumdon sindromi ayollarda eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri bo'lib, reproduktiv yoshdagi ayollarning 10 % qamrab oluvchi keng tarqalgan endokrin kasallikdir.

Kalit so'zlar : PCOS, polikistoz, tuxumdon sindromi, Gormonal disbalans, hayz buzilishi, bepushtlik.

**POLYCYSTIC OVARY SYNDROME (PCOS) MODERN APPROACHES TO DIAGNOSIS
AND TREATMENT
ANNOTATION**

Polycystic ovary syndrome is one of the most common endocrine disorders in women, affecting 10% of women of reproductive age.

KIRISH

PCOS Gormonal muvozanatning buzilishi, ovulyatsiyaning yo'qolishi va tuxumdonlarda ko'plab kista hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik bepushtlik, hayz sikilining buzilishi giperandrogenizm (erkak gormonlarining ortishi) va metabolik muammolarga olib keladi. Shuningdek PCOS ni erta aniqlash va davolash ayollar salomatligi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

ASOSIY QISIM

PCOSning tarqalishi va ahamiyati.

Polikistoz tuxumdon sindromi (PCOS) dunyo bo'yicha ayollar orasida eng ko'p uchraydigan endokrin kasalliklardan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra reproduktiv yoshdagi ayollarning 6-12 foizida PCOS aniqlanadi. Ayrim mamlakatlarda bu ko'rsatkich 20 foizgacha yetishi mumkin.

Etimologiyasi va patogenezi

PCOSning aniq sabablari hali to'liq aniqlanmagan, ammo bir nechta mexanizmlarni takidlab o'tish mumkin.

Genetik moyillik

PCOS ko'pincha oilada bu kasallikning holatlari bo'lgan ayollarda uchraydi, bu esa mumkin bo'lgan genetik kamponentni ko'rsatadi.

Insulin qarshiligi

PCOS bo'lgan ko'plab ayollarda Insulin qarshiligi kuzatiladi, bunda organizim hujayralari Insulin ta'siriga kamroq sezgir bo'ladi. Bu qondagi insulin darajasining oshishiga olib keladi, bu esa tuxumdonlarni ko'proq androgen ishlab chiqarishga rag'batlantiradi. Tuxumdonlardan erkaklik gormonlarining ortiqcha ishlab chiqarilishi normal ovulyatsiya jarayonini to'sib qo'yadi va hirzutuzim kabi alomatlariga olib keladi

Yallig'lanish

Past darajadagi surunkali yalig'lanish Insulin qarshiligi va yuqori darajadagi androgenlar bilan bog'liq bo'lishi mumkun. Yallig'lanish shuningdek semirish va metabolik buzilishlarga hissa qo'shishi mumkun

Klinik belgilari

PCOS belgilari har bir ayolda turlicha bo'lishi mumkun, ammo eng ko'p uchraydiganlari

Hayz sikilining buzilishi

Oligomenoreya (kam hayz ko'rish) yoki amenoreya (hayzning batamom to'xtashi)

Bepushtlik ayollarda ovulyatsiyaning yo'qligi homiladorlikka to'sqinlik qiladi. Tadqiqotlarga ko'ra PCOSli ayollarning 40% bepushtlikdan aziyat chekadi.

Giperandrogenizm belgilari.

Yuqori testesteron darajasi tufayli yuz va badan terisida akne, qorin va iyakda tuk o'sishi sochlar tokilishi kuzatiladi.

Diagnostika

PCOS diagnostikasi quyidagi usullarni o'z ichiga oladi

Tibbiy anamnez :shifokor simptomlar va hayz sikli haqida ma'lumot toplaydi

Fizik tekshiruvlar, akne va semizlik belgilarini baholash, qon tahlillari gormonlar (androgen, Insulin, FSh, LH testesteron) darajasini aniqlash Ultratovush tekshiruvi (ut) tuxumdonlarning xolati va kistalarning mavjudligi aniqlanadi.

Davolash

PCOSni davolash simptomlarni boshqarish va uzoq muddatli asoratlarning oldini olishga qaratilgan. Davolashning asosiy usullari quyidagilardan iborat.

Turmush tarzini o'zgartirish, sog'lom ovqatlanish, va muntazam jismoniy mashqlar tana vaznini kamaytirib gormonal muvozanatni yaxshilaydi hamda ovulyatsiyani tiklashga yordam beradi.

Dori vositalari : ovulyatsiyani rag'batlantruvchi va gormonal balansni tiklovchi preparatlar qo'llaniladi.

Jarrohlik usullari : og'ir holatlarda laparoskopik operatsiya bajarilib, ovulyatsiya tiklanadi.

XULOSA

Polikistoz tuxumdon sindromi ayollarda eng ko'p uchraydigan kasalliklardan biri bo'lib hayz buzilishi, bepushtlik va metabolik muammolarni keltirib chiqaradi. Vaqtida tashxis qo'yish va davolash kelajakdagi asoratlarning oldini olishda muhimdir

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR

"Gynecology" by Novak and Wood

"Williams Gynecology" by Barbara L. Hoffman, John O. Schorge, Joseph C. Gershenson, and Karen D. Bradshaw

"Berek and Novak's Gynecology" by David M. Gershenson, F. Gary Cunningham

□ Ilmiy maqolalar va tadqiqotlar:

Lumsden MA, et al. "Management of fibroids and the role of medical therapy." British Journal of Obstetrics and Gynaecology, 2000.

Stewart EA, et al. "Uterine fibroids: The impact on women's health and the role of medical therapy." Human Reproduction Update, 2001.

□ Internet manbalari:

Mayo Clinic - Uterine fibroids

American College of Obstetricians and Gynecologists - Uterine fibroids

□ Tibbiy jurnal maqolalari:

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-9

"Management of uterine fibroids: Current approaches" Journal of Obstetrics and Gynaecology Research (2017)

"Non-surgical treatments for uterine fibroids: A review of options" European Journal of Obstetrics & Gynecology and Reproductive Biology (2018)

□ Tadqiqotlar va resurslar:

National Institutes of Health (NIH) - Uterine Fibroids NIH website

